Annotatsiya: Maqolada institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni raqamlashtirishning ilmiy-metodologik jihatlarini ishlab chiqilgan. Unda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi, yangi institutlarni shakllantirish, ular tamoillari va jozibadorligini oshirish yo'llari hamda raqamlashtirish modellari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyotni institutsional tuzilishi, institutsional islohotlar, inklyuziv institutlar, islohotlar tamoyillari, transaksiya munosabatlari, jozibadorlik, mahalla institutlari, raqamlashtirish, samaradorlik omillari.

Abstract: The article reveals the scientific and methodological aspects of further deepening institutional reforms and their digitalization. It proposes a concept for deepening institutional reforms and the formation of new institutions, principles and ways to increase their attractiveness, as well as digitalization models.

Key words: institutional structure of the economy, institutional reforms, inclusive institutions, principles of theology, transactional relationships, attractiveness, mahalla institutions, digitalization, efficiency factors.

Аннотация: В статье раскрыты научно-методологические аспекты дальнейшего углубления институциональных реформ и их цифровизации. В ней предложены концепция углубления институциональных реформ и формирования новых институтов, принципы и пути повышения их привлекательности, а также модели цифровизации.


Ключевые слова: институциональная структура экономики, институциональные реформы, инклюзивные институты, принципы теологии, транзакционные отношения, привлекательность, институты махалли, цифровизация, факторы эффективности.

KIRISH

O'zbekistonda tarixan qisqa davr mobaynida davlat va jamiyat qurilishini tartibga soluvchi bozor tamoillariga asoslangan tubdan yangi institutlar va shunga mos institutsional muhit shakllantirildi. Uning negizini xalqimiz turmush tarzini, urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini hisobga oluvchi O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi, shuningdek, mamlakatimiz qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Shulardan kelib chiqib, biz O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti institutsional tuzilishini asosladi (1-rasm).

Bu jamiyatda davlat va biznes tuzilmalarini boshqarish, mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlariga, bozor islohotlari chuqurlashuviga, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini ta'minlovchi institutlar va ular normalarini rivojlantirish yo'nalishlarida hal etilishi lozim bo'lgan ko'plab muammolar, amalda o'z yechimini kutayotgan ustuvor vazifalar mavjud.

Gap shundaki, har qanday davlat va jamiyat, uning iqtisodiy agentlari ma'lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritadi va rivojlanib boradi. Vaqt o'tishi bilan institutlar rivojlanishning ichki talablari va tashqi omillari ta'siri ostida taraqqiyotga to'siq bo'lib qoladi. Bunday vaziyatlarda mavjud institutlar va institutsional muhitni takomillashtirish yoki ular o'rniga yangilarini amalga kiritish talab etiladi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining institutsional tuzilishi

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, institutlar va institutsional normalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi roli nima bilan izohlanishi, xususan, nima uchun bozorlar yoki mulkchilik munosabatlari ishlaydi yoki ishlamaydi, iqtisodiyotda olib borilayotgan siyosatning u yoki bu tadbirlari nima uchun samarali yoki samarasiz bo'ladi, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi qaysi o'zgarishlar ichki sabablarga ko'ra yoxud hukumatning u yoki bu qarori tufayli yuzaga keladi, nega ayrim davlatlar boy, ayrimlari kambag'al, degan savollarga javob topish hozirgi kunda "O'zbekiston-2030" strategiyasida institutsional islohotlarni chuqurlashtirishda asosiy o'rin egallaydi. Shularni hisobga olganda, "O'zbekiston-2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari va vazifalari doirasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni ko'p funksiyali raqamlashtirish jarayonlarida foydalaniladigan ilmiy konsepsiya, usul va modellarni ishlab chiqish hozirgi kunning zaruriy fundamental va amaliy tadqiqotlari qatoriga kiradi.

Bu Yangi O'zbekiston rivojlanishida Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasiga o'tishda inklyuziv institutlarning paydo bo'lishi va ular rivojlanishini har tomonlama rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari nufuzini oshirish, ijtimoiy sohani, aholini qo'llab-quvvatlashni faollashtirish hamda himoya qilishning institutsional normalarni hayotga keng kirib kelishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Institutlar va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish muammolariga ko'plab xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Institutlar va hozirgi zamon institutsional iqtisodiyoti rivojlanishiga D.Nort, R.Kouz, T.Eggertson va boshqalar tadqiqotlari katta hissa qo'shgan. Daron Ajemo'g'li, Saymon Jonson va Jeyms Robinson va boshqalar institutsional munosabatlarni chuqur tahlil qilgan va ular tadqiqotlarida inklyuziv va ekstrativ institutlarning amaliy jihatlari ochib bergan.

Rossiyalik olimlar A.N.Oleynik, R.M.Nureyev, A.Ye.Shastitko, A.V.Sicheyeva va boshqalar ishlarida institutsional iqtisodiyotning yangi yo'nalishlari asoslangan.

Mamlakatimizda X.P.Abilqosimov, R.X.Toshmatov, A.A.Xoshimov, A.M.Qodirov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida mulk huquqi, institutsional islohotlar, transaksiyalar, shartnomalar, norasmiy iqtisodiyot nazariyasi va amaliyot bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Tahlil qilingan ilmiy ishlarda yangi institutlar hamda institutsional muhit shakllanishi, bugungi kunda institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda raqamlashtirish, ular modellarini ishlab chiqish yo'nalishlari yetarlicha o'rganilmagan. Shularni inobatga olib, biz institutsional nazariya asoschilari tadqiqotlariga tayangan holda yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va raqamlashtirishning konseptual qoidalarni taklif qilishga harakat qildik.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi, islohotlar tamoilari, mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston–2030" strategiyasining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash me'zonlari, raqamlashtirish usullari hamda modellari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi. O'zbekistonda institutlar rivojlanishi va vaqt o'tishi bilan o'zgarib borishi, ularning o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlar faol shakllanish bosqichiga o'tmoqda. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda institutsional iqtisodiyot fani doirasida ma'lum ilmiy – amaliy natijalar qo'lga qiritilgan bo'lsada, institutsional islohotlarni izchil amalga oshirish uchun bular yetarli emas. Ushbu yo'nalishda TDIU tarkibidagi "Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi" 2009-2023-yillarda 4 ta grant loyihalari ijrochilari boshqa ilmiy hamda OTM markazlar bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari olib bormoqda. Shularni etiborga olganda, ushbu sohada institutlar va institutsional muhit normalarini, Yangi O'zbekiston strategiyasini samarali amalga oshirishning nazariy qoidalarini ishlab chiqish talab etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasini asoslashga harakat qildik (2-rasm). Uning asosini bir – birini birlashtiruvchi quyidagi uchta g'oya tashkil etadi:

- inklyuziv institutlarni rivojlantirish;
- inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- institutsional muhit jozibadorligini oshirish.




2-rasm: Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida institutsional islohotlarni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

Iqtisodiyotda inklyuziv va ekstraktiv institutlar mavjud. Inklyuziv institutlar – mamlakat iqtisodiyotiga va uning barqaror o'sishiga sarmoya kiritishga qaratilgan institutlar bo'lib, ular inklyuziv o'sishning afzalliklarini kengroq e'tirof etadi. Shuning uchun butun jamiyat va uning alohida guruhlar ham, ushbu iqtisodiy o'sishdan manfaatdor bo'lib, mulk huquqlarini himoya qilishga, raqobatga, iqtisodiyot agentlari o'rtasidagi shartnomalarni bajarishga qaratilgan siyosatni qo'llab-quvvatlaydi.

Ekstraktiv institutlar– ozchilik guruh (elita) uchun iqtisodiyotdan foyda "olish"ga e'tibor qaratadi. Bunday jamiyatda barqarorlik ancha past bo'lib, ijtimoiy birdamlik mavjud bo'lmaydi. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar ekstraktiv institutlarni cheklashga qaratilgan. Masalan, korrupsiyani cheklash va uni yo'qotish.

Inklyuziv institutlar innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqaradigan inson kapitalini yaratish hamda samarali qo'llash davrini ishga tushiradi va bu o'z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, faolroq iqtisodiy o'sishga va ijtimoiy farovonlikning oshishiga olib keladi (3-rasm).


Shu bois iqtisodiyot subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarda mavjud inklyuziv institutlarni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish davlatni iqtisodiy boyishiga va farovonlikka olib boradi, ekstrativ institutlar esa asta-sekin qashshoqlashuvga sabab bo'ladi.



3-rasm: Inklyuziv institutlar va aholi farovonligini oshirish

Ushbu holatlardan kelib chiqib, biz barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi inklyuziv institutlar tizimini asosladik. Ular qatoriga quyidagi iqtisodiy institutlar to'plamlarini kiritdik: talab institutlari; iste'mol institutlari; taqsimlash institutlari; almashish va ijtimoiy shartnomalar instituti; ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) institutlari; boshqarish institutlari; institutlarni ko'paytirish va o'zgartirish institutlari; davlat institutlari.

"Eski" institutlar to'plamlari institutsional normalarni transformatsiyalash va uning normalarini o'zgartirish - yangi inklyuziv institutlar shakllanishiga olib kelishi mumkin (4-rasm).



4-rasm: Yangi institutlarni shakllantirish

Keyingi yillarda aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham barqaror iqtisodiy o'sish to'g'risida gap ketganda iqtisodchilar institutsional islohotlarga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Umuman olganda olimlar iqtisodiyotda institutlar farovonlikka yagona yoki eng muhim izoh ekanligini ta'kidlashadi. Shularni inobatga olib, biz tadqiqotlarimizda "institut" o'zi nima?, degan tushunchaga ko'proq e'tibor qaratdik.

1. Institut – bu ijtimoiy tuzilma. U kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqa mavjudligini bildiradi. Biz o'zimizning birgalikda yashash va ishlashimiz orqali institutni yaratamiz.
2. Institut – bu tartibga soluvchi kuch, odamlar tanlovini va xo'jalik yuritishni chegaralaydi. Jamiyat insonlarga institut orqali ta'sir ko'rsatadi.
3. Institut – odamlar o'zaro aloqadorligining ma'lum bir tarkibiy tuzilmasini yaratadi. Shunday qilib, institutga insonlar o'rtasidagi xatti-harakatni tarkiblashtiradigan ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida qarash mumkin.
4. Institut – bu qoida, insonlar yakka harakati yoki ular guruhining o'zaro harakatining ma'lum bir chegarasi, qoidalar tizimi.
5. Institut – bu ta'sir qiluvchi kuch. Institut bu faqatgina rasmiy qoidalar emas, norasmiy chegaralarni ham o'zida mujassam etadi.
6. Institut – nazorat bo'yicha harakat yoki hokimiyatdir. Qisqacha aytganda, institut – bu harakat, ushbu harakat mazmuni esa – hokimiyat (nazorat)dir.




7. Institut – bu real xulq-atvor (o'zini tuta bilishlik) yoki harakatdagi qoidadir.
8. Institut – bu ijtimoiy tartibdir. Amaldagi institutlar (qoidalar) va xatti – harakatning real ketma-ketligi asosida ma'lum bir ijtimoiy tartib shakllanadi.
9. Institut – bu tashkilotdir. Kishilar faoliyatini yo'naltiruvchi va bo'ysundiruvchi hamda ijtimoiy xatti-harakatlarni tarkiblashtiruvchi omillar.

Institutsional islohotlar tamoyillari va bosqichlari. Institutsional islohotlar ma'lum bir yo'nalishda aniq maqsad va vazifalar doirasida boshqaruv funksiyalari hamda tamoyillariga asoslanib amalga oshiriladi. Ular quyidagilar:

1. Institutlar va institutsional islohotlar funksiyalari:
 - a) tashqi va ichki muhitdan axborotlar qabul qilish;
 - b) manfaatlar muvozanatini saqlashni tartibga solish;
 - d) islohotlar o'zgarishi darajalarini va bosqichlarini muvofiqlashtirish.
2. Bir-birini to'ldiruvchi islohotlar tamoyili:
 - a) joriy bosqichda islohotlarni amalga oshirishning yangi shartlarini o'z vaqtida aks ettirish;
 - b) manfaatlar balansini buzilganda islohotlarni amalga oshirishni cheklash;
 - d) islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga imkoniyat yaratish.
3. Islohotlarning innovatsionligi tamoyili:
 - a) islohotlar subyektlarini innovatsion aktivligini rag'batlantirish;
 - b) katta hajmdagi institutsional innovatsiyalar manfaatlar balansini ta'minlashi;
 - d) institutsional innovatsiyalar inson kapitali samaradorligini oshirishi
4. Islohotlar subyektlari o'rtasida axborot oqimlari ochiqdigi va ko'p funksiyali raqamlashtirish tamoyili:
 - a) institutsional islohotlar axborotlar oqimini raqamlashtirish funksiyalarini amalga oshirish bilan kuchli bog'liqligi;
 - b) axborot ochiqdigi funksiyasini amalga kiritish institutlar va institutsional islohotlar samaradorligini oshirish;
 - d) axborotlar ochiqdigi iqtisodiyot subyektlariga o'z vaqtida islohot loyihalariga o'zgartirishlar kiritish imkoniyatini beradi.

Ushbu funksiya va tamoyillar yangi inklyuziv institutlarni shakllanishini hamda iqtisodiyot subyektlari faoliyatini institutsional islohot qilishni amalga oshirish bosqichlarini belgilab olishni ta'minlaydi (5-rasm).




5-rasm: Institutsional islohotlarni amalga oshirish bosqichlari

Yangi O'zbekiston strategiyasida amalga oshirilayotgan yangi institutlar va rasmiy normalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasi dastlabki bosqichida 155 ta modda (institutlar) hamda 434 ta institutsional normalar o'rin olgan. "Harakatlar strategiya"sida 2017-2022 yillarda davlat, jamiyat va iqtisodiyot tizimlarini isloh qilish yo'nalishlarida 7 ta yangi qonun qabul qilindi, 15 ta amaldagi qonun va qonunchilik hujjatlari hamda 120 dan ortiq institutsional normalarga o'zgartirishlar kiritilgan. Shuningdek, "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirishda "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" yo'nalishi bo'yicha 24 yangi institutlar va 40 dan ortiq rasmiy institutsional normalar kiritish ko'zda tutilgan.

Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish muammolari.

1. Strategik islohotlarning hozirgi bosqichida O'zbekiston iqtisodiyotining institutsional tarkibi va uning inklyuziv iqtisodiy o'sish uchun zaruriy sharoitlar yaratishdagi roli, institutlar rivojlanishiga salbiy ta'sir etayotgan institutsional cheklovlarni (nomutanosib institutlarni) aniqlash muhim hisoblanadi. Shuni hisobga olib kichik biznes hamda yirik korporativ tuzilmalar (korxonalar) faoliyatida institutsional islohotlar samaradorligini baholash orqali institutsional cheklovlarni bartaraf etishning ilmiy asoslari va yo'nalishlarini ishlab chiqish zarur.
2. Raqobat sharoitida iqtisodiy o'sish va korxonalar samaradorligini oshirish ko'p jihatdan transaksiyalar (shartnomalar) bajarilishiga va ular uchun sarflanayotgan xarajatlar darajasiga bog'liq. Ushbu muammo yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar hozirgacha nazariy tasnifga ega bo'lib, ularda iqtisodiy rivojlanishning transaksiya xarajatlarini pasayishining amaliy jihatlari hisobga olinmayapti. Shu nuqtayi nazardan, bozor munosabatlari sharoitida transaksiya xarajatlarini optimallashtirish va raqamlashtirishning usul va mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb muammolar qatoriga kiradi (6-rasm).



6-rasm: Transaksiya munosabatlari va ular bilan bog'liq xarajatlar turlari

3. Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasida iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishida mikro, kichik, o'rta va yakka tadbirkorlik faoliyati ustuvor mavqega ega bo'lishi e'tirof etilgan. Shuni hisobga olib, mahalla muhitida oilaviy tadbirkorlik shakllari samaradorligini oshirish hamda ularni istiqbolda inklyuziv iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi institutlar va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarini kengaytirish islohotlar samaradorligini oshiradi.
4. O'zbekistonda shakllangan institutsional muhitning hozirgi holati, uning tarkibiy tuzilishi hamda inklyuziv iqtisodiy o'sish sur'atlarining kutilgan darajadan ortda qolishining institutsional sabablarini aniqlash, shuningdek, yangi qiymat yaratishga yo'naltiriladigan investitsiyalar oqimining o'sish sur'atlari va samaradorligini raqamlashtirish modellarida institutsional omillarni hisobga olish zarur. Shu bilan bir vaqtda, ijtimoiy – iqtisodiy tizimning barqaror inklyuziv rivojlanishining asosiy omili sifatida inson kapitali

o'sishini ta'minlash, undan institutsional islohotlar bosqichlarida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratishda samarali foydalanish, hududlarda "Yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalarini hamda ta'lim institutlarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlarni yana davom ettirish muhim natijalarga olib keladi.

Institutsional muhit jozibadorligini oshirish yo'llari. Bizning tadqiqotlarimizda asoslanganidek, quyidagi yo'nalishlarda inklyuziv iqtisodiy o'sish institutsional muhit jozibadorligini yanada oshiradi va bu O'zbekiston–2030 strategiyasini amalga oshirishni tezlashtiradi. Buning uchun quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, inklyuziv institutlarning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishidagi rolini kuchaytirish, xususiy mulkchilik va mulkdorlar huquqlarini himoya qilishning institutsional normalarini xorijiy tajribalardan foydalanib yanada takomillashtirish.

Ikkinchidan, iqtisodiy munosabatlarda tuzilgan shartnoma jarayonlarida yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini kamaytirish usullarini amaliyotga keng joriy qilish.

Uchinchidan, mahalla institutining aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatining institutsional-huquqiy normalarini hamda oilaning inson kapitalini asrash va uni rivojlantirish funksiyalarining yangi mezonlarini joriy etish.

To'rtinchidan, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish va innovatsiyalar yaratuvchi institutlarni ko'paytirish va keng qo'llab-quvvatlash.

Beshinchidan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy davlatning institutsional normalarini taomiliga yetkazish bo'yicha keng ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirish.


Institutsional islohotlarni amalga oshirishni raqamlashtirish modellari. Mamlakatimizda institutsional islohotlarni amalga oshirish samaradorligi, ushbu jarayon subyektlari faoliyatini raqamlashtirishga bog'liq hisoblanadi. Ushbu tadqiqotimizda institutlarning umumiy modellari ishlab chiqilgan va ular 3 guruhni tashkil qiladi.

Institutning umumlashtirilgan modeli


$$I = \{(N_0, D_0, R_0), (N_1, D_1, R_1), \dots, (N_k, D_k, R_k)\}$$

Bu yerda: I – institut; $S = \{I\}$ – normalar; N_0 – asosiy norma; $N_1, \dots, N_k$ – qo'llab-quvvatlash normalarni; D_k , R_k – mos ravishda yangi va mavjud i -chi normalarni saqllovchilar, $i = 0, 1, \dots, k$.


2. Mahalla institutida ishlab chiqarish kooperatsiyasini tashkil etish modeli (A)



3. Mahallada oilaviy tadbirkorlik institutlarini ko'p funksiyali raqamlashtirish modeli (B)



Mahallada yakka tartibdagi va kooperatsiyaga kiruvchi mikro, kichik, o'rta va yirik korxonalar tarkibiga mos institutlar va ularga bog'liq institutsional normalar, raqamlashtirish uchun axborot bazaga kiritiladi. Shu orqali institutsional islohotlarni amalga oshirish loyihalari ishlab chiqiladi. Loyihada foydalaniladigan modellar tizimi 6-rasmda keltirilgan.



7-rasm: Institutsional islohotlarni ko'p funksiyali raqamlashtirishda foydalaniladigan modellar tizimi

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Institutlar va institutsional muhit takomillashuvi iqtisodiyot subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tezlashtiradi va ular daromadi (foyda) darajasini oshishiga olib keladi, transaksiya xarajatlarini kamaytiradi.
2. Ijtimoiy institutlar normalari va ular ishlash mexanizmlarini yaxshilanishi aholi farovonligini yangi pog'onaga olib chiqadi.
3. Iqtisodiy va siyosiy institutlarning formal va abstraksiyalarga qarshi turishi samarali rivojlanishni ta'minlaydi.
4. Inklyuziv institutlar inson kapitali rivojlanishi, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar iqtisodiy o'sishni hamda aholi farovonligini ta'minlaydi.
5. O'zbekistonda 2022-yilda ishlab chiqarilgan 888,3 trillion so'm yalpi ichki mahsulotning qariyb 4,5 foizi yoki 40,0 trillion so'mi institutlar va institutsional normalar takomillashuvi hisobiga olingan, prognozlarga ko'ra, 2023-2030-yillarda ushbu ko'rsatkich 4,5 foizdan 9,0 foizgacha yoki 80 trillion so'mdan qariyb 160 trillion so'mgacha oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. –464 bet.
2. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги "Начало", 1997
3. Кауз Р. Фирма, рынок и право. – М.: Дело 1993
4. Эггертсон Т. Экономическое поведение и институты. – М.: Дело, 2001. –18-19 б.
5. Ajemo'g'li, Daron. Robinson, Jeyms A. Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari. Toshkent.: "Ofset-Print" MCHJ, "NihoI" nashriyoti. 2021. –672 bet.
6. Олейник А.Н. Институциональная экономика // Вопросы экономики. 1999. №1.–С. 138.
7. Нуреев Р.М. Институционализм: прошлое, настоящее, будущее // Вопросы экономики. –1999. –№ 1. –С. 125-147.
8. Шаститко А.Е. Новая Институциональная экономическая теория. –М., 2003. – С. 128.
9. Сычеева А.В. и др. Институциональная экономика [электронный ресурс]: учебно-методический пособие. – Волжский, 2017. – Режим доступа: <http://lib.volpi.ru>
10. Berkinov B.B., Abilqosimov X.P. va boshqalar. Institutsional iqtisodiyot. Darslik. –Toshkent: 2020 y. –430 bet.
11. Tashmatov R.X. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: – 2023 y. –80 bet.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.